

KORXONALARNING INNOVASION SALOHİYATI**Fayzullaev Ulugbek Tursunboevich****Namangan davlat texnika universiteti****Iqtisodiyot kafedrası dotsenti****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17950207>**

Annotatsiya: Bugungi kunda milliy iqtisodiyotda innovasion salohiyat tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va baholash ko'rsatkichlari bo'yicha ko'pgina tadqiqotlar amalga oshirilgan. Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarining o'ziga xos rivojlanish xususiyatlarini to'liq qamrab olgan va unga asosan tarmoq korxonalarining innovasion salohiyati tushunchasi, uni baholash ko'rsatkichlari va innovasion salohiyatni oshirish mexanizmlari bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.


Kalit so'zlar: Korxona, innovasion salohiyat, salohiyat, baholash, innovasion texnologiya, moliyaviy resurslar.

Korxonalarining innovasion salohiyatini baholashning tashkiliy-iqtisodiy mohiyati, tarkibi, rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Har qanday obektning mohiyati uning tuzilishini aniqlash vositasida ochib beriladi. Innovasion salohiyatning institusional tarkibi bir-birini asoslab beradigan, uch qismdan iborat bo'lgan mohiyat sifatida foydalanishda namoyon bo'ladigan uchta tarkibiy qism (resurslar, ichki va natijaviy) birligi bilan ifodalanadi. Innovasion salohiyatning resurslar qismi uni shakllantirish uchun o'ziga xos asos hisoblanadi. U turli xil funksional vazifalarga ega bo'lgan quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: moddiy-texnik, axborot, moliyaviy, inson resurslari. Xususan, moddiy-texnik resurslar, ashyoviy asos sanalgan holda, kelgusida innovasion faoliyat ko'lami va sur'atiga ta'sir ko'rsatadigan salohiyatning texnik-texnologik negizini tashkil etadi. O'z navbatida, ularning o'zi yangi texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan kelgusida sotiladigan yoki sotilmaydigan potensial imkoniyatlarni kiritadigan ishlab chiqarish vositalari tayyorlaydigan tarmoqlarda shakllanadi.

Korxonaning innovasion salohiyatini shakllanishi va amalga oshirilishi, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalaridan to mahsulotning ommaviy ishlab chiqarish yoki innovasion texnologiyalarni qo'llanilishigacha, innovasion jarayonni jadallashtiruvchi omillar va sharoitlar majmuining o'zaro tizimli ta'siri bilan bog'liq.

Innovasion salohiyat amalga oshirilayotgan va tugatilish bosqichlaridagi mavjud innovasion loyihalarda, shuningdek, innovasion faoliyatning rivojlanish elementlarining barchasini o'zaro bog'lovchi vositalarni qamrab oluvchi infratuzilmada aks etadi (1-rasm).



1-rasm. Korxonalar innovasion salohiyatini institusional tuzilishi

1-rasmdan ko'rinadiki, korxonalar innovasion salohiyatini institusional tuzilishi resurslarning tarkibi, korxonaning ichki omillari va innovasion faoliyatning natijaviy samarasiga bog'liq. Resurslarning tarkibiga axborot resursi (aynan uning bilimlar to'plami, modellar, algoritmlar, dasturlar, loyihalar kabi faol shakllari) boshqa resurslardan farqli ravishda, amalda bitmas-tuganmas hisoblanadi. Bunda ushbu resurslar turi mustaqil emas va o'zini olganda faqat potensial ahamiyatga ega bo'lib, boshqa resurslar - tajriba, mehnat, malaka, texnika, texnologiya, energiya, xom ashyo bilan birgalikda innovasion salohiyatning harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Moliyaviy resurslar innovasion salohiyatning resurslar tarkibiy qismiga mavjud resurslar va foydalanilmagan imkoniyatlarning uyg'unlikdagi birligi sifatida kiradi.

Shunday qilib, ular mavjud bo'lgan moliyaviy imkoniyatlar zaxiralari va manbalari yig'indisi bilan tavsiflanadi hamda muayyan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun foydalanilishi mumkin. Bunda moliyaviy resurslar xajmi moliyaviy quvvatni, tizimning moddiy ne'matlar yaratish va xizmatlar taqdim etishda qatnashish qobiliyatini aks ettiradi. Biroq ta'minlash funksiyasidan tashqari, moliyaviy resurslar sug'urta funksiyasini ham bajaradi, innovasion salohiyat tarkibiga kiradigan moddiy-texnik, axborot, inson va boshqa resurslarni pul birligida o'lchanadi.

Innovasion salohiyatning keyingi resurslar tarkibiy qismi inson resursi hisoblanadi, u ta'minot funksiyasini bajaribgina qolmay, asosiy ijodkor kuch sifatida namoyon bo'ladi. Aytib o'tilgan tarkibiy qism innovasion salohiyatning resurslar tarkibiy qismiga bevosita ta'sir etibgina qolmay, ichki va ayniqsa, natijali tarkibiy qismga ham ta'sir ko'rsatadi.

Innovasion salohiyatning ikkinchi tarkibiy qismi - oldingi barcha elementlar faoliyatining samaradorligi va ishga yaroqliligini ta'minlaydigan imperativ (qat'iy talab) hisoblanadi. Umuman, aytib o'tilgan tarkibiy qism innovasion faoliyatni maqsadli yo'naltirilgan tarzda amalga oshirish imkoniyatini tavsiflaydi, ya'ni tizimning tijorat unumdorligi tamoyillarida turli xil yangiliklar taklif etish, yaratish va tarqatish uchun resurslar jalb qilish qobiliyatini aniqlaydi.

"Innovasion salohiyat" tushunchasi XX asrning 70 yillari oxiridan boshlab fanga faol kirib kela boshladi. U qator olimlarning uslubiy, nazariy tadqiqotlarida aniqlashtirilgan va ishlab chiqilgan. Biroq, shu kungacha ham mazkur tushunchaning dunyoda umumqabul qilingan yagona ta'rifi ishlab chiqilgan emas. Har bir olim yoki mutaxassis o'z davlatining xususiyatlarini inobatga olgan holda innovasion salohiyatni o'ziga xos talqin etadi

"Salohiyat" tushunchasining turli xil talqinlarini ko'rib chiqqan holda, innovasion salohiyat ta'rifiga to'xtalamiz. "Salohiyat" tushunchasi lotincha "potential" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "imkoniyat, kuch, qudrat" degan ma'nolarni bildiradi.

Iqtisodiyotning globallashuv ko'lami tobora kengayib borayotgan bir sharoitda har qanday kon'yunkturaviy o'zgarishlarga qarshi tura oladigan, ichki va tashqi bozor talablariga tezlik bilan moslasha oluvchi raqobatbardosh milliy sanoat tarmoqlarini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Chunki, milliy sanoatning barqaror va mutanosib rivojlanishi va jahon bozorida mustahkam o'rin egallashi hisobidan aholining turmush darajasi va farovonligini yanada oshirish olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Endilikda ishga tushirilayotgan zamonaviy sanoat tarmoqlarida yangi ishlab chiqarish quvvatlarining yo'lga qo'yilishi innovasion mahsulotlar salmog'ining respublikamiz yalpi ichki mahsulotida ko'payishiga, ayni chog'da, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda yuksak natijalar qo'lga kiritilishiga olib kelmoqda.

Bu esa, mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortayotganligidan dalolat beradi. Shuning uchun sanoat korxonalarida innovasion jarayonlarni tezlashtirish evaziga ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, mahsulot va xizmat turlarini muttasil yangilab borish negizida ularning raqobatbardoshligini ta'minlovchi mexanizmlarni rivojlantirish milliy sanoatni modernizasiyalashning ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Xulosa

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning (YaIM) yuqori sur'atlar bilan o'sishi an'anaviy xom ashyo tarmoqlari yoki jahon bozoridagi qulay kon'yunktura va ayrim xom ashyo turlari hamda materiallar narxining yuqoriligi hisobidan emas, balki birinchi navbatda, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish ta'minlanayotganligini ta'kidlashimiz joiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Investisiya faoliyati to'g'risida"gi. 2016 y. 24 dekabr, 2-modda. lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasining Innovasion faoliyat to'g'risidagi Qonuni. 2020 yil 24 iyul, <https://lex.uz/acts/>
3. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). BILIMLAR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING USTUVOR YO'NALISHLARI. *Journal of new century innovations*, 74(2), 65-70.
4. Xolmirzayev, Ulug'bek. "Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari." *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT* 1.11-12 (2023).

5. Xolmirzayev, U. B. (2024). Bilimlar iqtisodiyoti jamiyat taraqqiyotini zamonaviy bosqichining asosidir. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(6).
6. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). INNOVATION FAOLIYATNING MOLIYAVIY TA'MINOTINI KUCHAYTIRISH ZARURLIGI VA OMILLARI TAHLILI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(03), 142-146.
7. Abdulazizovich, Xolmirzayev Ulug'bek. "BILIMLAR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING USTUVOR YO 'NALISHLARI." *Journal of new century innovations* 74.2 (2025): 65-70.
8. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. *Ilmiy monografiya. Toshkent-2023*.
9. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 197-206.
10. Xolmirzayev, U. B., & Hakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 96-98.
11. Hakimov, B. J., Alimov, B. B., Xolmirzayev, U. A., & Polatov, A. X. (2013). Iqtisodiy tahlil nazariyasi. *T: "Iqtisod-Moliya"-2013*.
12. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, 12(11), 38-47.